

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNI
“YAM-YASHIL MAKON” SHE’RI TAHLILI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillar

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg o‘zing yangicha lirizmi, inson ichki kechinmalarini nozik tasvirlash san’ati, yuksak badiiy tafakkuri bilan XX asr o‘zbek adabiyotida yuqori o‘rin egallagan ijodkorlardan sanaladi. Uning adabiyoti o‘zbek va rus badiiy adabiyot an’analari tutashgan nuqtada rivojlangan bo‘lib, millatlararo ma’naviy yaqinlik, insoniy sadoqat, bolalik xotiralari, Vatanga muhabbat va hayotiy haqiqatlar singari mavzular uning ijodiyotidagi markaziy mavzulardan hisoblanadi va chuqur falsafiy tafakkur, mulohazalar vositasida ochib beriladi. Faynberg ijodida Toshkent obrazi alohida ahamiyatlidir. Uning uchun bu azim shahar shunchaki geografik makon emas, balkiy ruhiy manzil, qalb qo‘rg‘oni, bolalikning beg‘ubor nafasi, ilk quvonch va iztirobning timsolidir. Shoirning umr yo‘li uning ijodiy faoliyatidagi mazmun va ruhni belgilab bergan. U Toshkent shahrida tug‘ilgan, shu yerdagi milliy muhitda voyaga yetgan, urushning suronli yillari, undan keying tiklanish davri, janiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar, insoniy qadriyatlar sinovdan o‘tgan pallarni o‘z boshidan o‘tkazgan ijodkor sifatida o‘sha damlarda, beg‘ubor bolaligidan ulg‘aygunigacha his qilgan barcha kechinmalarini qog‘ozga ko‘chirgan. Faynberg uchun shahar tirik organizm, u bilan dildan suhbat qurish, uni mushtoq bo‘lib sog‘inish, unga qaytish mumkin bo‘lgan aziz go‘sha. U ko‘plab asarlarida devor, tom, daraxt, ko‘cha, hovli kabi milliy hayot detallarini qo‘llagan bo‘lib, bu detallar o‘z ma’nosidan ko‘ra chuqurroq ramziy ma’noni ifodaladi va insonning butun hayoti mobaynida o‘z ildizlariga bog‘lanib yashashini anglatadi. Faynberg ijodi ko‘p jihatdan xotira falsafasiga tayanch deyishimiz mumkin. Xotira shoir uchun shunchaki o‘tmishni yod etish emas, balki o‘tmishga qarab o‘z-o‘zini anglab yetish jarayonidir. Inson o‘tmishini eslar ekan, aslida o‘zini, o‘z qadriyatlarini kimligini kashf etadi. Chunki har bir insonning qalbi qay darajada uzoqlarga ketmasin, baribir bog‘lanib turadigan bir manzil bo‘ladi. Adabiyot nuqtai nazaridan o‘ylab qaraganda Faynberg ijodi lirizm va falsafa uyg‘unlashuvining nozik namunasi sifatida farqli. U hayotni dramatik qarama-qarshiliklar bilan emas, balki sokin kechinmalar orqali tasniflaydi. Shoirning badiiy uslubida tabiiylik ravonlik va obrazlarning real voqealardan olinganligi ustunlik beradi. Shu sababdan ham u yozgan asarlar turli davr avlod vakillariga ham tushunarli va yaqin bo‘lib qoladi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is considered one of the creators who occupied a high place in Uzbek literature of the 20th century with his unique lyricism, the art of delicately depicting human inner experiences, and high artistic thinking. His literature developed at the junction of Uzbek and Russian literary traditions, and themes such as interethnic spiritual closeness, human loyalty, childhood memories, love for the Motherland, and life realities are among the central themes of his work, and are revealed through deep philosophical reflection and reflection. The image of Tashkent is of particular importance in Feinberg's work. For him, this great city is not just a geographical location, but a spiritual destination, a stronghold of the soul, a symbol of the innocent breath of childhood, the first joy and suffering. The poet's life path determined the content and spirit of his creative work. He was born in Tashkent, grew up in the national environment here, and experienced the terrible years of the war, from which As a creator who experienced the later period of revival, the changes that occurred in society, and the trials that tested human values, he transferred all the experiences he felt from his innocent childhood to adulthood to paper. For Feinberg, the city is a living organism, a dear place with which one can have a heartfelt conversation, miss it, and return to it. In many of his works, he used details of national life such as walls, roofs, trees, streets, and courtyards. These details expressed a deeper symbolic meaning than their own meaning and symbolized that a person lives connected to his roots throughout his life. In many ways, Feinberg's work can be said to be the basis for the philosophy of memory. For the poet, memory is not just a matter of remembering the past, but rather a process of self-awareness based on the past. When a person remembers his past, he actually discovers himself, his values, who he is. Because no matter how far the soul of every person wanders, there is always a destination to which he is connected. From a literary point of view, Feinberg's work is distinguished as a subtle example of the combination of lyricism and philosophy. He characterizes life not through dramatic contradictions, but through quiet experiences. The poet's artistic style is dominated by naturalness, fluidity, and the fact that images are taken from real events. For this reason, his works remain understandable and close to representatives of different eras and generations.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг считается одним из творцов, занявших высокое место в узбекской литературе XX века благодаря своему уникальному лиризму, искусству тонкого изображения внутренних человеческих переживаний и высокому художественному мышлению. Его литература развивалась на стыке узбекской и русской литературных традиций, а такие темы, как межэтническая духовная близость, человеческая верность, детские воспоминания, любовь к Родине и жизненные реалии, являются центральными темами его творчества и раскрываются через глубокие философские размышления и осмысление. Особое значение в творчестве

Файнберга имеет образ Ташкента. Для него этот великий город – не просто географическое место, а духовная цель, оплот души, символ невинного дыхания детства, первой радости и страданий. Жизненный путь поэта определил содержание и дух его творчества. Он родился в Ташкенте, вырос в местной национальной среде и пережил ужасные годы войны, от которых, как творец, переживший последующий период возрождения, изменения в обществе и испытания человеческих ценностей, он перенёс на бумагу весь свой опыт, накопленный от невинного детства до зрелости. Для Файнберга город — это живой организм, дорогое место, с которым можно вести задушевный разговор, скучать по нему и возвращаться. Во многих своих произведениях он использовал детали национальной жизни, такие как стены, крыши, деревья, улицы и дворы. Эти детали выражали более глубокий символический смысл, чем их собственное значение, и символизировали то, что человек всю жизнь живёт в связи со своими корнями. Во многом творчество Файнберга можно считать основой философии памяти. Для поэта память — это не просто воспоминание о прошлом, а скорее процесс самосознания, основанный на прошлом. Когда человек вспоминает своё прошлое, он фактически открывает себя, свои ценности, кто он есть. Потому что, как бы далеко ни забредала душа каждого человека, всегда есть цель, к которой она привязана. С литературной точки зрения, творчество Файнберга выделяется как тонкий пример сочетания лиризма и философии. Он характеризует жизнь не через драматические противоречия, а через тихие переживания. В художественном стиле поэта преобладают естественность, текучесть и то, что образы взяты из реальных событий. По этой причине его произведения остаются понятными и близкими представителям разных эпох и поколений.

Kalit so‘zlar: Vatan, Toshkent, bolalik хотирлари, sog‘inch, ruhiy makon, sadoqat, хотира falsafasi, vaqt va makon, lirizm, ma’naviy ildiz, inson va shahar obrazi, Aleksandr Faynberg ijodi.

Keywords: Homeland, Tashkent, childhood memories, nostalgia, spiritual space, loyalty, philosophy of memory, time and space, lyricism, spiritual roots, image of man and city, Alexander Feinberg's work.

Ключевые слова: Родина, Ташкент, детские воспоминания, ностальгия, духовное пространство, верность, философия памяти, время и пространство, лиризм, духовные корни, образ человека и города, творчество Александра Файнберга.

Aleksandr Arkadevich Faynberning she’riyatida shoir adabiyotidagi beg’ubor bolalik хотирлари, Vatan, milliy an’analar o’z aksini topgan eng sara asarlar salmoqlidir. ”Yam-yashil makon” she’ri ana shunday ana shunday ruhiy bog’liqlik, bolalik va Vatan хотirasining poetik ifodasidir. Bu asarda shoir o’z

shahriga,o'z bolaligiga,o'z o'tmishiga mehr bilan murojaat qiladi.She'ning boshidayoq "Aziz shahrim,yam-yashil makon» deya murojaat qilinishi lirik qahramonning qalbida jo'sh urib turgan samimiyat,iliqlikning yorqin ifodasidir.Bu aytib o'tganlarimiz oddiygina tasvir emas,bu butun umr bo'yi tark etmaydigan,har doim hamroh bo'ladigan ichki ehtiyoj,ruhiy ehtiros,inson bolasining o'z ildizi nish urgan joyga qaytish istagidir.

Faynberg she'riyatiga xos bo'lgan yana bir jihat shundaki,unda o'quvchi ruhiga rad etib bo'lmas darajada ta'sir qiluvchi yaqinlik,ya'ni samimiyat va tabiiylik mavjud.U balandparvoz shiorlar yoki murakkab tasviriy ifodalarda ko'ra oddiy hayotiy manzaralarni keltirib,shu orqali chuqur mazmun yarata oladi."Yam-yashil makon" she'rida ham aynan shunday xususiyat kuzatiladi:bolalikdagi ko'cha,tom ustida hushtak chalayotgan bola,kaptarlar,xaroba ayvon-bularning bari sodda tasvirlardek ko'rinadi.Ammo ular ortida insonning butun umr davomida o'zligini anglash jarayoni,ildizga qaytish istagi,ruhiy sadoqat g'oyasi mujassam.

YAM-YASHIL MAKON

Aziz shahrim, yam-yashil makon,

Ilk tabassum, birinchi ko'z yosh.

Qora o'ra, xaroba ayvon

Uzra yashil novda yashnar yosh.

Tunuka tom ustida Gena,

Hushtak chalib kaptar o'ynardi.

Uchratarman qayerda yana

Ko'cha to'la og'aynilardi?

Yana nima betakror mutloq?

Yulduzlar. Oy, yulduzlar turg'un.

Uy buzilib ketdi-yu, biroq

Yonar bir juft derazam har tun.

Yonib turar fidoyi, hormay,

Meni kutar ko'zi to'rt bo'lib.

Dunyoning qay burchida yurmay,

Men o'laman shu yerga kelib.

She'ning ilk misralaridanoq o'quvchi lirik qahramon xotiralari dunyosiga kirib ketadi:"Aziz shahrim,yam-yashil makon, Ilk tabassum,birinchi ko'z yosh." Bu yerda shahar obraziga "aziz" so'zining qo'llanishi chuqur hissiy munosabatni ifodalaydi."Ilk tabassum" va "birinchi ko'z yosh" jummalari esa bolalaik va ilk hayotiy tajribalarni anglatadi.Demak,shahar insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim maskan,hayotiy saboqlari boshlanadigan mo'tabar makon.

Keyingi satrlarda bu tasvir yanada jonlantiriladi:"Qora o'ra,xaroba ayvon Uzra yashil novda yashnar yosh." Bu o'rinda esa biz adabiyotning qarama-qarshilik asosida

quriladigan san'ati antiteza namunasini ko'ramiz."Qora o'ra", "xaroba ayvon" vayronalik va eskilikni anglatadigan timsollar bo'lsa, "yashil novda" yangilanish va umid ramzi. Shoir shu misol vositasida hayot to'xtab qolmasligini, davom etaverishini, vayrongarchiliklar ichidan ham yangi hayot unib chiqaverishini ko'rsatadi. Bu tasvir inson qadriga, jasoratiga ham ishora: qanchalik qiyinchilik bo'lmasin, umid novdasi barbir yashaydi.

Tunuka tom ustidagi Gena obrazi bolalikning jonli detali o'laroq beriladi. Hushtak chalib, kaptar o'ynagan bolalar manzarasi beg'uborlik, quvonch va do'stlik ifodasidir. Lirik qahramon "Uchratarman qayerda yana Ko'cha to'la og'aynilardi?" deya savol tashlaydi o'rta. Bu savol javobsiz qoladi, chunki vaqt o'tib ketib bo'ldi, endi u damlarga qaytishning imkoni yo'q. Bu misralarda sog'inch va armon ohangi sezilib turadi.

She'ning keying qismida esa falsafiy ohang kuchayadi: "Uy buzilib ketdi-yu, biroq Yonar bir juft derazam har tun." Uy buzilib, moddiy borliqdan yo'qoladi. Lekin "yonar bir juft-bu xotira va ruhiy bog'liqlik ifodasi. Deraza nur manbai sifatida tasvirlanadi. U fidoyi, hormay yonadi. Bu obraz orqali shoir Vatan mehrini, ona yurt sadoqatini ifodalaydi. Xuddiki makonning o'zi ham lirik qahramonni kutmoqda.

She'ning eng ta'sirli nuqtasi esa yakunida: "Dunyoning qay burchagida yozmay Men o'laman shu yerga kelib." Bu satrlarda insonning o'z ildiziga qaytish xohishini, tug'ilib o'sgan joy bilan ajralmas rishtasini ko'rsatadi. Bu yerda sog'inch, ishonch va qat'iyat o'z ifodasini topgan. Qahramon qayerda yashamasin, hayot yo'li, qalbi uni barbir o'z manziliga olib kelaveradi. She'ning bosh g'oyasi insonning o'z bolaligi, Vatani, xotiralari bilan uzviy bog'liqligi haqidagi fikrdir. Moddiy narsalar yemirilib yo'q bo'lib ketishi mumkin, ammo qalbdagi mehr, sadoqat va xotira aslo o'chmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Yam-yashil makon" she'ri sog'inch bolalik xotiralari va Vatanga sadoqat tuyg'ularining samimiy ifodasidir. She'rda oddiy hayot detallari orqali chuqur falsafiy g'oyalar beriladi. Bu she'r ijodkor o'z ona Vatanga nisbatan beqiyos va samimiy mehri namunasi hamdir. U Vatani, tug'ilib o'sgan diyori shu qadar sevadiki, she'r so'ngida o'zi ta'kidlaganidek qayerda ijod qilmasi, Vatani tuprog'iga kelib jon berishni xohlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1980.
2. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
3. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2002.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
5. Aleksandr Arkadevich Faynberg. She'rlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1975.
6. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.